



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI QAHRAMON OBRAZIDAN BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI UCHUN TARBIYAVIY JIHATDAN FOYDALANISH USULLARI

Akramova Sitora Utkirovna

Zarmed universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti

+998 (99) 058-34-32

sitora.utkirovna2108@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-4401-6423

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodidagi qahramon obrazidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritiladi. Qahramonlarning jasorat, halollik, mehnatsevarlik, adolat, do'stlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda o'rgatish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, 1–4-sinflarda qahramon obrazini o'rganish orqali o'quvchilarda ijobiy axloqiy fazilatlar, mustaqil fikrlash va hayotiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Folklor, qahramon obrazi, ertak, doston, tarbiyaviy imkoniyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, folklor ta'limi, metodik yondashuv, qadriyat.

METHODS OF UTILIZING HEROIC FIGURES FROM FOLKLORE FOR THE EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article examines the pedagogical and methodological potential of using heroic characters from folklore in the moral and ethical education of primary school pupils. It analyzes methods of teaching such qualities as courage, honesty, diligence, justice, friendship, and patriotism through heroic characters in accordance with pupils' age-specific characteristics. The article also provides methodological recommendations for developing positive moral qualities, independent thinking, and the ability to draw life-related conclusions through the study of heroic characters in Grades 1–4.

Keywords: Folklore, heroic character, fairy tale, epic, educational potential, moral and ethical education, primary education, folklore education, methodological approach, values.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕРОИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ ФОЛЬКЛОРА ДЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические возможности использования образов героев фольклора для духовно-нравственного воспитания младших школьников. Анализируются способы формирования у детей таких добродетелей, воплощенных в этих образах (мужество, честность, трудолюбие, справедливость, дружба, патриотизм), с учетом возрастных особенностей учащихся. Кроме того, предлагаются методические рекомендации по воспитанию у школьников 1–4-х классов положительных нравственных

качеств, самостоятельности мышления и умения делать значимые жизненные выводы на основе изучения героических образов.

Ключевые слова: фольклор, образ героя, сказка, эпос, воспитательный потенциал, духовно-нравственное воспитание, начальное образование, фольклорное образование, методический подход, ценности.

KIRISH

Qahramon – bu, asosan, ertak, rivoyat, afsona, mif, va boshqa ko'plab folklor hamda badiiy adabiyot janrlarida gavdalanadigan asosiy ishtirokchisi sanaladi. Qahramon asarning asosiy g'oyasini ochib beradi. Masalan, qahramonning yovuzlikka qarshi kurashi orqali ezgulik va yovuzlikning qarama-qarshiligi ifodalanadi. Qahramonning g'alabasi esa ezgulik va adolat kutadigan xalq uchun ulkan umiddir. Chunki, ko'pincha qahramon xalqning ideal inson haqidagi tasavvurini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, o'zbek xalq doston, ertak va afsonalaridan Alpomish, go'ro'g'li, Zumrad, Alrad Ko'sa kabi personajlarda yaqqol ko'rinadi.

“Xalqaro tadqiqotlar bolalarning katta qismi bolalik davrida hikoya tinglash, kitob o'qish, qo'shiq aytish va boshqa og'zaki hamda yozma badiiy faoliyatlar bilan tanishishini ko'rsatadi. Masalan, OECD ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro miqyosda besh yoshli bolalarning 54 foizi ota-onasi tomonidan haftasiga kamida uch marta kitob o'qib beriladigan muhitda ulg'ayadi.”. [9]

Bu ma'lumotga tayangan holda, bolalar qahramonlar siymosi orqali ma'lum bir ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar bilan dunyoqarashi shakllangan bo'ladi deyish xato bo'lmaydi. Qahramonlar bolalarda mardlik, kattalarni hurmat qilish, ota-onaga sodiq bo'lish, vatanini sevishtirish, do'stga xiyonat qilmaslik, mehnatsevarlik, adolatsizlikka qarshi turish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shuning uchun, qahramon obrazini tarbiyaviy mukammallikning tashuvchisi deb nomlasak mubolag'a bo'lmaydi.

METODOLOGIYA

Folklor qahramonlarini muayyan turlarga tasniflash qiyin. Chunki ular, asosan, janr, syujet, tarixiy-madaniy muhit va xalq an'alariga qarab farqlanadi.

Epik qahramon – doston va yirik epik asarlardagi markaziy obraz. O'zbek folklorida Alpomish, Go'ro'g'li, Ravshan, Rustamxon kabi obrazlari hisoblanadi.

Ertak qahramoni, asosan, oddiy inson sifatida tasvirlanadi. Masalan, Kenja o'g'il, kambag'al yigit, yetim qiz, podsho qizi, dono qiz, botir yigit kabi ertak qahramonlari kiradi. Masalan, kambag'al yigit dastlab jamiyatda kuchsiz bo'lsa-da, uning aqlliligi, halolligi yoki oxir-oqibat uni g'alabaga olib keladi.

Aql-idrok va topqirlik qahramoni – bu, asosan, turli murakkab vaziyatlardan kuch ishlatish orqali emas, balki o'zining fikrlash qobiliyati va topqirligi orqali chiqib ketadigan personaj. Masalan, Nasriddin Afandi o'zbek xalq latifalarida ana shunday qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Ayol qahramon folklorda muhim o'rin egallaydi. O'zbek folklorida ayol qahramonlar o'zlarining jasurligi, donoligi, sadoqati, irodaliligi va mustaqilligi bilan tasvirlanadi. Bu qahramonlar qatoriga Barchinoy, Zumrad, Kuntug'mishdagi Xolbeka kabi obrazlar kiradi. Shuning uchun, folklorda ayol kishi "go'zal qiz" sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli hisoblanmaydi.

Folklorda ham, badiiy adabiyotda ham qahramondan keying asosiy rol antagonistda bo'ladi. Antagonist – bu qahramonning xarakterini ochib beruvchi, qahramonning maqsadiga qarshi turuvchi kalit rolni bajaruvchi obraz. Masalan, ertaklarda ajdar, dev, yalmog'iz kampir kabi obrazlar qahramonning antagonisti vazifasini bajaradi.

Folklor qahramonlarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'siri ulkan bo'lishi mumkin. Chunki kichik maktab yoshidagi bola abstract axloqiy tushunchalarga qaraganda aniq obrazga ega, voqea va qahramonning xatti-harakatlari orqali berilgan tarbiyaviy mazmunni osonroq qabul qiladilar. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi qahramonlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, estetik, mehnatsevarlik va ijtimoiy tarbiyasida samarali vosita bo'la oladi.

Folklor qahramoni Alpomish orqali o'quvchilarda Vatanga, ona yurtga, xalqiga sadoqat, mardlik tuyg'ularini shakllantirishi mumkin. Ertaklardagi mehnatsevar va dangasa qahramonlarni qiyoslash esa mehnatsevarlik fazilatini tarbiyalashda yaxshi natija beradi. Masalan Zumrad va Qimmat" ertagi asoda o'quvchilar ikki xil xulq-atvorni, ya'ni Zumradning mehnatdan qochmasligini, odobli, sabrli va kattalarni hurmat qilishini, hamda Qimmatning dangasa, erka va manmanligini taqqoslaydilar.

Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun metod tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir sinfda o'quvchining fikrlash doirasi, aqliy va jismoniy qobiliyatlar hamda psixologiyaidan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-sinfda bola qahramonning xatti-harakatini uzoq tahlil qila olmaydi. Shuning uchun rasm, harakat va soda tanlov asosidagi metodlar ma'qul.

Xalq ertagi	Qahramon	Tarbiyaviy jihat
Bo'g'irsoq	Bo'g'irsoq	Ehtiyotkorlik
Sholg'om	Ertak qahramonlari	Hamjihatlik
Mushuk, xo'roz va tulki	Xo'roz	Ehtiyotkorlik
Tulki bilan turna	Turna	Do'stlik, mehmondo'stlik
Ochko'z it	It	Ochko'zlikning zarari
Chumoli va ayiq	Chumoli	Mehnatsevarlik
Kapalak kabi xalq ertaklari	Qahramon	Go'zallik va yaxshilik

Masalan, "Sholg'om" ertagida bola murakkab axloqiy tahlil qilishi talab etilmaydi. O'qituvchi tomonidan yo'naltiruvchi savollar berilishi yetarli:

1. Bobo yolg'iz o'zi sholg'omni torta oldimi?
2. Kimlar yordam berdi?
3. Demak, birgalikda nima qilish mumkin?

Bola asta-sekin birgalikda harakat qilish – yaxshi natijaga olib keladi degan xulosaga keladi.

2-sinfda qahramonning xatti-harakati va uning natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish muhim sanaladi. Chunki bu yoshdagi bolalar uchun "Nima qildi?" va "Nima bo'ldi?" shaklidagi savollar juda qulay.

Xalq ertagi	Qahramon	Tarbiyaviy g'oya
Zumrad va Qimmat	Zumrad	Mehnatsevarlik
Bo'ri bilan tulki	Tulki	Ayyorlik
Echki bolalari	Echki bolalari	Ehtiyotkorlik
Tulki va uzum	Tulki	O'zini oqlash
Qarg'a bilan tulki	Qarg'a	Ishonuvchanlik
Arslon va sichqon	Sichqon	Yaxshilik, minnatdorlik
Quyvon va toshbaqa	Quyvon, toshbaqa	Sabrlilik
Bo'ri va qo'zichoq	Qo'zichoq	Adolat

Masalan, "Quyvon va toshbaqa" ertagida quyvon o'ziga ortiqcha ishonib yo'lda dam oldi, natijada esa musobaqada toshbaqaga yutqazdi. Bola ertakdagi ssabab va oqibatni juda soda ko'rinishda angelaydi.

3-sinfda qahramonning xarakteriga e'tiborni qaratish lozim. Bunda o'quvchi qahramonni bitta sifat bilan tavsiflashni o'rganadi:

Ertak	Qahramon	Asosiy fazilat
Aqlli qiz	Aqlli qiz	Zukkolik
Uch og'a-ini botirlar	Uch aka-uka	Jasorat
Kenja botir	Kenja o'g'il	Mardlik
Ochil dasturxon	Kambag'al yigit	Halollik
Ur to'qmoq	Kambag'al odam	Adolat
Sehrli uzuk	Yigit	Yaxshilik

Podsho va kambag'al	Kambag'al	Aql va halollik
Dono chol	Chol	Donolik
Rostgo'y bola	Bola	Rostgo'ylik
Hunarli yigit	Yigit	Mehnat va hunar

Bu sinfda "Qahramonga bitta so'z" metodini qo'llash mumkin. Bunda oq'uvchi qahramonni bir so'z bilan ta'riflaydi: aqlli, jasur, halol, mehnatkash, saxiy. 3-sinf o'quvchisi hali murakkab ilmiy tahlil qila omaydi, ammo fikrini dalil bilan bog'lashni boshlaydi.

4-sinfda qahramonning xatti-harakatini o'z hayoti bilan bog'lash mumkin. Bu bosqichda faqat o'zbek ertaklari emas, jahon xalq folkloridan foydalanish foydali bo'lishi mumkin.

Ertak	Qahramon	Tarbiyaviy jihat
Alpomish	Alpomish	Mardlik, sadoqat
Go'ro'g'li	Go'ro'g'li	Adolat, jasorat
Kuntug'mish	Kuntug'mish	Sadoqat
Rustamxon	Rustamxon	Jasorat
Uch og'a-ini botirlar	Botirlar	Hamjihatlik
Aqlli qiz	Qiz	Aql-zakovat
Zumrad va Qimmat	Zumrad	Mehnatsevarlik
Ochil dasturxon	Yigit	Halollik
Ur to'qmoq	Kambag'al	Adolat
Sholg'om	Oila a'zolari	Hamkorlik
Bo'g'irsoq	Bo'g'irsoq	Ehtiyotkorlik
Arslon va sichqon	Sichqon	Yaxshilik
Quyvon va toshbaqa	Toshbaqa	Sabr, qat'iyat
Qarg'a va tulki	Qarg'a	Ishonuvchanlikdan saqlanish

Tulki va turna	Turna	Mehmondo'stlik
Echki bolalari	Echki	Ogohlik
Bo'ri va qo'zichoq	Qo'zichoq	Haqiqat va adolat
Zolushka	Zolushka	Mehnatsevarlik, sabr
Pinokkio	Pinokkio	Rostgo'ylik
Maugli	Maugli	Do'stlik, jasorat
Qizil qalpoqcha	Qizil qalpoqcha	Ehtiyotkorlik
Uch cho'chqacha	Cho'chqachalar	Mehnat, mas'uliyat
Sichqoncha va sher kabi xalq ertaklari	Sichqoncha	Yordam, do'stlik
Chol va sholg'om	Chol va oila	Birlik
Sehrli baliq	Bola/yigit	Yaxshilik va saxovat
Hansel va Gretel	Aka-singil	Bir-biriga yordam
Qor malikasi	Gerda	Sadoqat, jasorat
Etik kiygan mushuk	Mushuk	Topqirlik
Qorqiz	Qorqiz	Mehr, ehtiyotkorlik
Go'zal va maxluq	Go'zal	Mehr, insonni tashqi ko'rinishiga qarab baholamaslik

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq ertaklari qahramonlaridan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Xalq ertaklaridagi qahramonlar orqali yaxshilik va yomonlik, halollik va yolg'on, mehnatsevarlik va dangasalik, jasorat va qo'rqqoqlik, saxovat va ochko'zlik, do'stlik va xiyonat kabi axloqiy tushunchalar

o'quvchiga mavhum nazariya tarzida emas, balki aniq obraz va uning xatti-harakati orqali yetkaziladi.

1-sinf o'quvchilarida qahramon obrazidan foydalanish ko'rish, tanish va ajratishga asoslanishi; 2-sinfda qahramonning xatti-harakati va uning natijasini anglashga; 3-sinfda qahramonning fazilatlarini aniqlash va sodda baholashga; 4-sinfda esa qahramonning xatti-harakatini o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lash va mustaqil fikr bildirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Demak, tarbiyaviy metodlarning murakkabligi bolaning sinfdan-sinfga rivojlanib boruvchi fikrlash imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O'quv darslik. Musiqqa nashriyoti, Toshkent. 2024.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik majmua. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent. 2010.
3. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU, 2022.
4. "The Science of Folk-Tales and the Problem of Diffusion". Joseph Jacobs. Wikisource.org. 2011.
5. Akramova S. "Boshlang'ich sinflarda xalq ertaklarini o'qitishning innovatsion metodlari". Pedagogical reforms and their solutions, vol.5 No.02 (2024).